



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 345 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalar investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lvo‘lovchi” aining asisiiy faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkijonovna	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
Jumayeva Zulfia Qayumovna	
Sog‘liqni saqlash tashkilotarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlash masalalari	260
Raximova Maftuna Axmadjon qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foydani taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish masalalari	264
Suyunov Otabek Shuxrat o‘g‘li	
O‘zbekiston qonunchiligida raqamli transformatsiya jarayonida elektron to‘lov kartalarini soxtalashtirishni jinoyatlashtirish	276
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
Mamlakatimizda intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalari.....	281
Miyassarov Davron Abdurashid o‘g‘li	
Validation of the dutch eating behaviour questionnaire (DEBQ) in a sample of uzbek women.....	285
Khursana Usmanova, Dr Muhammad Bilal, Dilafruz Qo‘chqorova	
Iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini o‘ziga xos jihatlari	295
Nabiyev Bexzod Shavkatovich, Bayboboeva Furuza Nabijonovna	
Davlat qarz siyosatini optimallashtirishda islomiy moliya instrumentlarining qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishlari	299
Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	
Роль институциональных структур фондового рынка в обеспечении финансовой стабильности.....	305
Камилова Севара Анваровна	
The Impact of Digitalization on the Management System in the Entrepreneurial Environment of Uzbekistan.....	309
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
China’s Investment Strategy in Uzbekistan: Sectoral Trends and Strategic Implications (2013–2024).....	313
Maftuna Nuriddinova	
Qo‘shilgan qiymat solig‘i tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati	319
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Raqamli boshqaruvning afzalliklari va uni rivojlantirish istiqbollari	324
Xolbayeva Marg‘uba Qazoqboyevna	
Korporativ boshqaruvning nazariy asoslari: O‘zbekistonda qo‘llanish imkoniyatlari.....	328
Jumayeva Guzal Sherxon qizi	
Audit organizations in Uzbekistan	332
Razzaqov Jasur Xamraboevich, Yaqubov Matrasul Mavlonberdiyevich, Sabirova Nodira Komil qizi	
Xorijiy investitsiyalarning turlari va xususiyatlari	337
Gofurov Doston Boxromovich	
Mahalliy budjet mablag‘larining samaradorligini oshirishda auditning o‘rni.....	341
Primova Shaxnoza Komiljonovna	



MAHALLIY BUDJET MABLAG'LARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AUDITNING O'RNI

Primova Shaxnoza Komiljonovna

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”

milliy tadqiqot universiteti

08.00.08 - «Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit»

yo‘nalishi III-bosqich tayanch doktranti

Email: shahnozakomiljonovna1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy budjet mablag'larining samaradorligini oshirishda auditning o'rni tahlil qilinadi. So'nggi yillarda davlat moliya tizimida shaffoflikni ta'minlash, budjet mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish va moliyaviy intizomni mustahkamlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy budjetlar darajasida audit tizimini kuchaytirish mablag'lardan oqilona foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish hamda ortiqcha va samarasiz xarajatlarning oldini olishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotda ichki va tashqi auditning o'zaro bog'liqligi, indikatorli baholash tizimining joriy etilishi hamda raqamli audit texnologiyalarining qo'llanishi samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Xorijiy ilg'or tajribalar va O'zbekiston amaliyoti solishtirilib, mahalliy sharoitga mos ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, audit tizimini takomillashtirish nafaqat moliyaviy shaffoflikni oshiradi, balki mahalliy boshqaruv organlarining aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, audit, ichki audit, tashqi audit, moliyaviy shaffoflik, samaradorlik, indikatorli baholash, raqamli audit, moliya boshqaruvi, budjet intizomi.

Abstract: This article analyzes the role of audit in improving the efficiency of local budget utilization. In recent years, reforms have been implemented in the public finance system aimed at ensuring transparency, controlling the targeted use of budget funds, and strengthening financial discipline. Strengthening the audit system at the local budget level is an important tool for the rational use of funds, optimizing expenditures, and preventing excessive and inefficient spending. The study highlights the interconnection between internal and external audit, the importance of introducing an indicative evaluation system, and the use of digital audit technologies to enhance efficiency. By comparing advanced international practices with those of Uzbekistan, scientifically grounded proposals adapted to local conditions have been developed. The findings show that improving the audit system not only increases financial transparency but also contributes to enhancing the quality of services provided by local government authorities to the population.

Key words: local budget, audit, internal audit, external audit, financial transparency, efficiency, indicative evaluation, digital audit, financial management, budget discipline.

Аннотация: В данной статье анализируется роль аудита в повышении эффективности использования средств местного бюджета. В последние годы в системе государственных финансов реализуются реформы, направленные на обеспечение прозрачности, контроль за целевым расходованием бюджетных средств и укрепление финансовой дисциплины. Усиление системы аудита на уровне местных бюджетов является важным инструментом для рационального использования средств, оптимизации расходов, а также предотвращения избыточных и неэффективных затрат. В исследовании раскрыта взаимосвязь внутреннего и внешнего аудита, значение внедрения системы индикативной оценки и применения цифровых технологий аудита для повышения эффективности. Путём сопоставления передового зарубежного опыта и практики Узбекистана разработаны научно обоснованные предложения, адаптированные к местным условиям. Результаты показывают, что совершенствование системы аудита не только повышает финансовую прозрачность, но и способствует улучшению качества обслуживания населения органами местного самоуправления.

Ключевые слова: местный бюджет, аудит, внутренний аудит, внешний аудит, финансовая прозрачность, эффективность, индикативная оценка, цифровой аудит, управление финансами, бюджетная дисциплина.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat moliya tizimini isloh qilish, budget mablag'larining shaffof va oqilona sarflanishini ta'minlash hamda mahalliy boshqaruv organlarining moliyaviy intizomini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda [1]. Mahalliy budgetlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutib, hududlar infratuzilmasini rivojlantirish, aholiga sifatli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashning asosiy moliyaviy manbasi hisoblanadi [4].

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda mahalliy budget mablag'laridan foydalanishda samarasizlik, ortiqcha xarajatlar yoki maqsadli sarflanmaslik holatlari uchray turadi [2]. Bunday vaziyatlar moliyaviy shaffoflikni pasaytiradi, aholining davlat boshqaruv organlariga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda hududlarning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi [8].

Mazkur muammolarni bartaraf etishda auditning o'rni beqiyosdir [3]. Ichki va tashqi audit mexanizmlari yordamida budget xarajatlarning samaradorligi, ularning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi nazorat qilinadi [2]. Xususan, indikatorli baholash tizimlari, raqamli audit texnologiyalari hamda xalqaro standartlarga asoslangan metodologiyalarni joriy etish mahalliy budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin [5].

Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari shuni ko'rsatadiki, audit faqat nazorat vositasi bo'lib qolmay, balki boshqaruv qarorlarini asoslashda ham muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi [9]. Shu bois ushbu tadqiqotda mahalliy budget mablag'larining samaradorligini oshirishda auditning roli, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari chuqur tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy budget mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash masalasi jahon moliya-iqtisodiy ilmiy adabiyotida keng yoritilgan bo'lib, ko'plab tadqiqotlar ushbu jarayonda auditning nazorat va maslahat beruvchi funksiyalariga alohida e'tibor qaratadi [4].

Samuelson P.A. va Nordhaus W.D. (2016) budget mablag'larining samaradorligini oshirishda auditning asosiy vazifasi xarajatlarning maqsadli yo'naltirilganligini aniqlash va ularni iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida baholash ekanligini ta'kidlaydi [4]. OECD (2020) ma'lumotlariga ko'ra, mahalliy moliya tizimida samaradorlikni oshirish uchun auditning strategik tavsiyalar berish imkoniyati kengaytirilishi kerak [4].

Xalqaro oliy audit institutlari tashkiloti — INTOSAI (2019) tavsiyalarida esa davlat va mahalliy budgetlar auditini uch asosiy yo'nalishda olib borilishi zarurligi qayd etilgan: moliyaviy audit, muvofiqlik audit va samaradorlik audit [3]. Bu uch yo'nalish uyg'unlashganda moliyaviy intizom mustahkamlanadi va davlat mablag'laridan oqilona foydalanish kafolatlanadi [3].

Mahalliy budget mablag'lari ustidan nazoratni kuchaytirish O'zbekistonda ham so'nggi yillarda dolzarb masalaga aylangan [1]. Nazarova R.Sh. (2021) mahalliy budgetlarda samaradorlik audit mexanizmlarini joriy etish orqali moliyaviy intizomni oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqqan [6]. Shuningdek, Xoliqov Sh.A. (2022) ichki audit tizimida indikatorli baholash mezonlarini ishlab chiqish orqali budget mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlash mumkinligini asoslab bergan [7].

Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (2023) hisobotida esa mahalliy budgetlarning 17–20 % qismi samarasiz yoki maqsadsiz xarajatlarga sarflanayotganini aniqlagan [2]. Bu esa auditning nafaqat nazorat, balki profilaktik funksiyasini ham kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi [2].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ilmiy manbalarda mahalliy budgetlar samaradorligini oshirishda auditning roli ikki yo'nalishda yoritiladi [4]:

- mablag'larning maqsadli va qonuniy sarflanishini nazorat qilish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar va mahalliy boshqaruv organlariga samaradorlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish.

Shu bilan birga, milliy adabiyotlarda raqamli audit texnologiyalari, indikatorli baholash tizimlari va xalqaro tajribani integratsiya qilish bo'yicha izlanishlar yetarli darajada olib borilmayapti [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda mahalliy budget mablag'larining samaradorligini oshirishda audit tizimining o'rni kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi bir necha bosqichlarni qamrab oldi.

Avvalo, nazariy tahlil amalga oshirilib, budget mablag'lari samaradorligi va audit tizimiga oid milliy hamda xalqaro ilmiy manbalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va xalqaro standartlar (INTOSAI, OECD) o'rganildi [1]. Ushbu tahlil orqali auditning nazorat, maslahat va profilaktika funksiyalari aniqlab olindi.

Keyingi bosqichda empirik tahlil olib borildi. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi, Moliya vazirligi va Mahalliy kengashlar hisobotlari asosida 2019–2023-yillarda mahalliy budget xarajatlari samaradorligi bo'yicha



statistik ma'lumotlar yig'ildi [2]. Ushbu ma'lumotlar asosida budget mablag'larining maqsadli sarflanish darajasi va samarasiz xarajatlar ulushi hisoblab chiqildi.

Solishtirma tahlil davomida O'zbekiston tajribasi Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi mamlakatlar amaliyoti bilan qiyoslab o'rganildi [3]. Ushbu tahlilda indikatorli baholash tizimlari, raqamli audit platformalari va moliyaviy monitoring mexanizmlariga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, ekspert so'rovi o'tkazilib, moliya sohasi mutaxassislari, auditorlar va mahalliy kengash deputatlari o'rtasida so'rovnoma tashkil etildi [4]. So'rovnomada audit samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari va amaliy to'siqlar aniqlab olindi. Natijalar tahlilida Likert shkalasi va ekspert baholash usullari qo'llandi.

Bundan tashqari, mahalliy budget auditi tizimining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavf-xatarlarini aniqlash uchun SWOT tahlil metodidan foydalanildi [5]. Ushbu yondashuv audit tizimining strategik rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi.

Tadqiqot yakunida indikatorli baholash mezonlarini joriy etish, raqamli audit platformalarini ishlab chiqish va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha konseptual takliflar ishlab chiqildi [6]. Mazkur metodologiya yordamida mahalliy budget mablag'larining samaradorligini oshirishda auditning real ta'sir mexanizmlari aniqlanib, ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar taklif qilindi [7].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida mahalliy budget mablag'larining samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning eng muhimlaridan biri sifatida samarali audit tizimini ajratib ko'rsatish mumkin [1]. Audit nafaqat moliyaviy intizomni mustahkamlash, balki budget mablag'larining maqsadli sarflanishi va kutilgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishilishini ta'minlash vositasi sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi holat tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hisobotlariga ko'ra, 2023-yilda o'tkazilgan tekshiruvlar natijasida mahalliy budget mablag'laridan foydalanishda 1,2 trillion so'm miqdorida moliyaviy qonunbuzilishlar aniqlangan [2]. Ushbu qonunbuzilishlarning asosiy qismi ortiqcha xarajatlar, noto'g'ri hisob-kitoblar va mablag'larni maqsadsiz sarflash bilan bog'liq bo'lib, bu holat moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish darajasining yetarli emasligini ko'rsatadi.

Amaldagi tizimning zaif tomonlaridan yana biri — audit qamrovining torligi. Bugungi kunda mahalliy budgetlar bo'yicha o'tkazilayotgan auditlarning 65 foizi faqat moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini tekshirish bilan chegaralanadi, samaradorlik auditi esa juda kam hollarda qo'llanilmoqda [3]. Natijada, budget mablag'larining haqiqiy natijadorligi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik darajasi yetarlicha baholanmaydi. Bu esa davlat mablag'laridan foydalanishning samaradorligini kompleks tahlil qilish imkoniyatini cheklaydi.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreya va Germaniyada mahalliy budgetlarning qariyb 100 foizi samaradorlik auditi bilan qamrab olingan bo'lib, audit jarayonlarida indikatorli baholash tizimlari, elektron monitoring va ochiq ma'lumotlar bazalari keng qo'llanadi [4]. Mazkur yondashuvlar moliyaviy intizomni mustahkamlash bilan birga, davlat boshqaruvining shaffofligini oshiradi hamda aholining davlat institutlariga nisbatan ishonchini kuchaytiradi.

Ekspert so'rovlari ham ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlamogda. Jumladan, o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, mutaxassislarning 78 foizi mahalliy budget samaradorligini oshirish uchun indikatorli baholash tizimini joriy etish zarur deb hisoblaydi [5]. Shuningdek, 65 foiz respondentlar audit jarayonlarining to'liq raqamlashtirilishi korrupsion xavflarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkinligini ta'kidlagan.

SWOT tahlil esa mavjud tizimning ichki va tashqi omillarini yanada chuqurroq ochib beradi. Kuchli tomonlar sifatida huquqiy asoslarning mavjudligi va auditning davlat nazorat organlari tomonidan kafolatlanishi qayd etilgan bo'lsa, zaif tomon sifatida auditorlar malakasining yetarli emasligi va amaliy ko'nikmalarining cheklanganligi ta'kidlangan [6]. Imkoniyat sifatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro tajribani tatbiq etish ko'rsatib o'tilgan.

Ilmiy asoslangan takliflar shuni ko'rsatadiki, mahalliy budgetlar bo'yicha indikatorli samaradorlik auditini joriy etish, yagona raqamli audit platformasini ishlab chiqish va uni milliy standartlarga moslashtirish, auditorlar malakasini oshirish uchun muntazam treninglar tashkil etish hamda audit natijalarini ochiq ma'lumotlar portalida e'lon qilish zarur [7]. Shu bilan birga, audit jarayonlarida xalqaro standartlarga asoslangan metodologiyalarni tatbiq etish va mahalliy sharoitga moslashtirish alohida ahamiyatga ega.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy budget mablag'larining samaradorligini oshirishda audit tizimi nafaqat moliyaviy nazorat mexanizmi, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi [8]. Kelajakda samaradorlik auditi tizimini kengaytirish, uni raqamlashtirish va shaffofligini ta'minlash O'zbekistonda budget mablag'laridan oqilona foydalanish hamda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy byudjet mablag'larining samaradorligini oshirishda audit tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat moliyaviy intizomni ta'minlaydi, balki boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim axborot manbai sifatida ham xizmat qiladi [1]. Audit natijalari orqali davlat organlari resurslarni taqsimlash va sarflash bo'yicha strategik qarorlarni aniqroq belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston amaliyotida mavjud audit jarayonlari asosan moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini tekshirish bilan chegaralanmoqda, samaradorlik auditi esa yetarli darajada qo'llanilmayapti [2]. Bu holat byudjet mablag'larining natijadorligini tahlil qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi va ayrim hollarda resurslarning samarasiz yoki maqsadsiz sarflanishiga olib kelmoqda [3]. Bunday yondashuv shuni ko'rsatadiki, amaldagi audit tizimi moliyaviy nazorat bilan cheklanib qolgan, natijadorlikni aniqlash esa ikkinchi darajali vazifaga aylanib qolgan.

Xorijiy tajribalar shuni tasdiqlaydiki, samaradorlik auditini keng joriy etish davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshiradi. Masalan, Janubiy Koreya va Germaniyada indikatorli baholash tizimlari, raqamli monitoring platformalari va ochiq ma'lumotlar bazalaridan keng foydalanilmoqda [4]. Bunday mexanizmlar nafaqat mablag'larning oqilona sarflanishini ta'minlaydi, balki aholining davlat boshqaruviga nisbatan ishonchini oshiradi ham. Shu bois O'zbekistonda ham zamonaviy audit mexanizmlarini keng joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi [5].

Taklif etilayotgan islohotlar quyidagicha:

Birinchidan, indikatorli samaradorlik auditi joriy etilishi lozim. Bu yondashuv har bir mahalliy byudjet yo'nalishi bo'yicha aniq natijalarni o'lchaydigan baholash mezonlarini ishlab chiqishni talab qiladi [6]. Masalan, ta'limga ajratilgan mablag'lar natijasida o'quvchilar bilim sifatining oshishi yoki tibbiyotga ajratilgan mablag'lar orqali aholining sog'liq darajasining yaxshilanishi kabi ko'rsatkichlar doimiy nazorat ostiga olinishi kerak.

Ikkinchidan, raqamli audit platformasi yaratish zarur. Blokcheyn texnologiyalariga asoslangan yagona milliy tizim real vaqt rejimida moliyaviy monitoringni amalga oshirish imkonini beradi [7]. Bu tizim orqali mablag'larning har bir bosqichdagi harakati kuzatiladi, soxta hujjatlar va ortiqcha xarajatlarning oldi olinadi.

Uchinchidan, auditorlarning malakasini muntazam oshirish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro audit standartlari, xususan ISSAI va INTOSAI talablariga muvofiq muntazam treninglar tashkil etilishi zarur [8]. Bu orqali nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalar ham shakllanadi, auditorlar mustaqil va xolisona tahlil olib borish qobiliyatiga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, audit natijalarini jamoatchilik uchun ochiq e'lon qiladigan ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirish talab etiladi [9]. Shaffoflikni oshirish orqali korrupsiya xavflari kamayadi, fuqarolar esa davlat boshqaruvi jarayonida bevosita nazoratchi sifatida qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Beshinchidan, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish orqali samaradorlik auditi bo'yicha milliy standartlarni ishlab chiqish va qonunchilikka tatbiq etish lozim [10]. Bu yondashuv auditning tizimli va majburiy bo'lishini ta'minlaydi, uning huquqiy asoslari mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish mahalliy byudjet mablag'larining oqilona sarflanishini ta'minlash, korrupsion xavflarni kamaytirish va aholining davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi [1]. Shu tariqa, audit tizimi moliyaviy nazorat mexanizmigina emas, balki strategik boshqaruvning samarali vositasiga ham aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Davlat moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5012-son Qarori. 18 fevral 2021 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi. Yillik hisobot. – Toshkent, 2023.
3. INTOSAI. International Standards of Supreme Audit Institutions (ISSAI 3000–3100). – Vienna: INTOSAI, 2019.
4. OECD. Performance Budgeting in OECD Countries. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 256 p.
5. Lee, T.A. "Digital Audit Technologies in the Public Sector". Journal of Accounting & Public Policy, 2021, Vol. 40(3), pp. 106–121. DOI: 10.1016/j.jaccpubpol.2020.106781.
6. Nazarova, R.Sh. "Mahalliy byudjetlarda samaradorlik auditi mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari". Buxgalteriya hisobi va audit, №2, 2023, B. 45–51.
7. Xoliqov, Sh.A. "Davlat moliyasida audit tizimini rivojlantirish istiqbollari". Moliyachi, №4, 2022, B. 33–38.
8. OECD. Government at a Glance 2019. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 212 p.
9. Asian Development Bank. Public Financial Management Systems – Performance and Challenges. – Manila: ADB, 2021. – 184 p.
10. World Bank. Enhancing Public Sector Performance: World Development Report 2018. – Washington, DC: World Bank, 2018. – 266 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
